

NUTQ TO'G'RILIGINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Ne'matova Mehribon Vose qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali. Boshlang'ich ta'lif fakulteti 1 - bosqich
talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagog nutqini oshirishda qo'yiladigan talablar, adabiy me'yordan to'g'ri foydalanish va nutq to'g'riliqini oshirishda turli usullardan foydalanish kabilalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Nutq, talaffuz, imlo, me'yor, til, so'z matn.

THE MAIN FEATURES OF CORRECTNESS OF SPEECH

Abstract: This article describes the requirements for improving the speech of a pedagogue, the correct use of various methods to increase the accuracy of speech

Key words: speech, pronunciation, spelling, norm, language, word, text.

Nutqning to'g'ri bo'lishi uning bosh kommunikativ xususiyati hisoblanadi. Nutqning to'g'ri tuzilgan bo'lishi tomonlarning, ya'ni so'zlovchi va tinglovchining, yozuvchi va o'quvchining bir-birlarini oson va tez tushunishlariga yordam beradi. Nutqning to'g'ri bo'lishi uning adabiy til me'yorlariga to'g'ri kelishidir. Adabiy til me'yorlari o'zi nima? Bu me'yorlarga :

1. Imlo me'yorlari
2. Talaffuz me'yorlari
3. Grammatik me'yorlar

4. So'z tanlash va qo'llash kabilalar kiradi. Ushbu me'yorlar nutqimizni to'g'riliqini ta'minlash bilan bir qatorda tinglovchiga kuchli, ifodali va qiziqarlu yetib borishi uchun xizmat qiladi.

Me'yor haqida olimlar ko'plab fikrlarni bayon etganlar. Masalan, S.I. Ojegov fikricha, "me'yor bu ijtimoiy taraqqiyoti davomida shakllangan til birliklarining maqbulini tanlash natijasida vujudga kelgan jamiyatda xizmat qiladigan foydali til vositalari yig'indisidir. [1-40]" Ko'pchilik odamlar ko'pincha gapirayotgan paytida, ya'ni nutq so'zlayotganda talaffuz me'yorlariga amal qilmasdan so'zlashadi. Bunda ular "b" tovushining jarangsizlantirib "p" tarzida aytib yuborishi yoki bo'lmasa "d" tovushining "t" tarzida talaffuz etilishi ko'p kuzatiladi. Yozma nutqda esa grammatik me'yordan to'g'ri foydalanish kerak. Gapda ega, kesim gap bo'laklari tartib bilan joylashishi lozim. Shubhasiz, gap bo'laklari haqida gap ketganda kelishik qo'shimchalarini, ot va sifat yasovchi qo'shimchalarni, fe'l nisbatlarini, ega va kesimning shaxs-sonda mosligini kabilarni ma'no va vazifalarini farqlash joizdir. Nutqimiz boyligini oshirish uchun gapirayotgan nutqimizda so'z tanlash va qo'llashga ham alohida e'tibor berishimiz o'rinnlidir. Chunki nutqimizda bir so'zning ortiqcha takrorlamasligimiz uchun ning ma'nodoshlari bilib o'rinnli foydalanishimiz, shakdosh va paronim so'zlarni ham o'rinnli joylarda ishlatishimiz bizni tinglayotgan tinglovchiga

gaplarimiz tushunarli va aniq bo'lishi uchun turli shevadagi so'zlardan foydalanmasligimiz kerak. Shuunda nutqimiz aniq, ravon, ixcham bo'lishiga zamin yaratamiz desak adashmagan bo'lamic.

Nutqimizni to'g'rilingini oshirishda birinchi navbatda amaliy mashqlar ham qilish kerak. Masalan,

1. Matn yozish. O'rganilayotgan birorta til bo'ladimi o'sha tilda har kuni bir nechta odama xat yozish bu o'sha tilni rivojlantirishga yordam beradi.

2. Matn o'qish. Kitoblar, maqolalar va matnlar o'qish orqali so'zlarni o'rganish mumkin.

3. So'zlar bilan mashg'ulot. Yangi so'zlar talaffuzda qiynalib aytilsa, shu so'zlarni ko'proq takrorlab yurish orqali bilib olsa bo'ladi.

4. Ko'zguga qarab gapirish. Har kuni ko'zguga qarab nutq so'zlayotganda hayajondan aytolmaydigan gaplarni yoki bo'lmasa matnlarni takrorlab olsak bo'ladi. Bu usul bilan nafaqat nutqimizni tog'rilingini oshirishimiz shu bilan bir qatorda omma oldida so'zlaganda ham bir maromda hayajonlanmay gapirishimiz mumkin.

Nutq so'zlashga tayyorlanish varaqqa yozilgan yoki yodlangan silliq iboralarni o'z ichiga oladimi? Yo'q. Balki u bir nechta tasodifiy aslida sizni aslo hayajonlantirmaydigan fikrlardan iboratdir? Mutlaqo yo'q. Bu tayyorgarlik sizning o'y fikrlaaringiz, ishonchingiz, xohish-istiklalningizni tanlab olishni anglatadi. Axir, sizda shunday fikrlar, xohish-istiklalar bo'ladi-ku! Ular sizni har kuni tetiklashgan vaqtingizda ro'y beradi. Hatto tushlaringiza kiradi. Sizning butun borlig'ingiz his-tuyg'ulardan iboratdir. Nutq so'zlashga tayyorgarlik ko'rishimiz bu so'zlarni o'ylash, fikrlarni miyyada obdan pishirmoq, kerakli so'zlarni eslab qolish, undan diqqatingizni tortganlarni tanlash, ularni adabiy tilde so'zlash, tartib bilan joylashtirish kabilalar nutqimizni chiroyli va nafis qilib beradi. Ajdodlarmiz qadimdan to'g'ri, ta'sirchan, chiroyli gapirishga intilish va ularni odatga aylantirishga ma'rifiy, axloqiy talab sifatida qarab kelganlar. So'zni qadrlash, yaxshi so'zlay olish so'zlaganda o'ylab, tushunib gapirish, chin so'zlash, tilni tiyish, sihbat sirlarini saqlash ezma va vaysaqi bo'lmaslik kabilarga amal qilish nutq odobining asosiy talablari hisoblangan. Nutqiy muomaladagi bu odatlar xalqimizning o'ziga xos an'anasi sifatida yashab va takomillashib kelmoqda. Nutq madaniyatini egallash birinchi galda hozirgi o'zbek tili va uning mavjud ifoda vositalarini puxta o'zlashtirish adabiy til me'yorlariga to'liq amal qilish lisoniy omillarga, ikkinchidan, so'zlashganda muayyan axloq odob me'yorlariga rioya etish va o'zgalar gapiga e'tiborli bo'lish, o'rinci so'zlash, tinglash, suhbatlashish, munozara madaniyatini bilish kabi ijtimoiy omillarga bog'liqdir.

Demak, biz nutqimizni to'g'rilingini oshirishda adabiy me'yorlardan to'g'ri va o'rinci foydalanishimiz kerak ekan. Me'yorlardan qanchalik to'g'ri foydalansak bu bizning nutqimizni aniq, ravon va mantiqiy bo'lishiga ham xizmat ko'rsatadi. Nutq so'zlayotgan paytimizda esa turli sheva so'zlardan yoki chetdan kelgan o'zlashma so'zlardan foydalanmagan holda adabiy tildan foydalanishimiz kerak. Shuning uchun ham adabiy til hamma birdek foydalanadigan til hisoblanadi. Uning umumxalqliyligi ham shunda ko'rindi. Til esa bu bizning aloqa qurolimiz hisoblanar ekan, undan foydalanishda turli

jarayon so'zlardan foydalanmagan holda so'zlashimiz ham bu bizning qanchalik darajada so'z ustasi, so'zga chechanligimizni ham ko'rsatishimiz mumkin ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.L. Raupova "Innovatsion ziyo" 2019. 40-bet
- 2.D. Karneyi "O'z-o'ziga ishonch hosil qilish va notiqlik san'ati" Respublika bolalar kutubxonasi. 15-bet
- 3.N. Mahmudov, A.Rafiyev , O.Yo'ldashev "Davlat tilida ish yuritish" darslik 2-nashr Toshkent 2007. 17-bet